

“O‘zbekiston MET” AJ Axborot xizmatining 2021-yil I chorak media-rejasiga muvofiq amalga oshirilgan ishlari hamda Media-reja asosida Jamiyatning uzbekistonmet.uz veb-sayti va uning ijtimoiy tarmoqlaridagi sahifalari orqali keng jamoatchilik e'tiboriga e'lon qilingan maqolalari haqida qisqacha ma'lumot

| № | Amalga oshirilgan ishning qisqacha mazmuni | Havolasi |
|----|---|---|
| 1. | <p>2020-YIL SARHISOBI: ELEKTR ENERGETIKA TARMOG‘I TUNU KUN XALQIMIZ XIZMATIDA (№1)</p> <p>Respublikaning iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha va biznes sub'ektlari hamda aholining elektr energiyasiga ortib borayotgan talabini to‘liq qoplash, ya'ni ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasini taqsimlovchi korxonalariga uzatishning ishonchliligini oshirish maqsadida, Jamiyat tassarufidagi elektr tarmoqlarini modernizatsiya hamda rekonstruksiya qilish ishlarini jadal olib bormoqda. Xususan, 2020-yilda podstansiyalarda jami 1500 MVA yangi quvvatlar yaratildi. Jumladan, modernizatsiya dasturi asosida 9 ta podstansiyada jami qo‘shimcha 1100 MVA quvvat ishga tushirilishi, yangi qurilishlar dasturiga asosan Toshkent viloyati aholisi va tadbirkorlik sub'ektlarini barqaror elektr energiyasi bilan ta'minlash bo‘yicha qo‘shimcha quvvati 400 MVA yangi 220 kVli “Sirg‘ali” PS foydalanishga topshirilganini alohida ta'kidlash zarur.</p> | <p>http://uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/655 http://uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/655 https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5528 https://uza.uz/uz/posts/elektr-energetika-tarmogi-tunu-kun-xalqimiz-xizmatida_199147</p> |
| 2. | <p>ELEKTR ENERGIYASI: TARIXI, IBTIDOIY SHAKLI, TARAQQIYOTI, BUGUNI (7-ma'lumot)</p> <p>XVIII asr boshlarida atmosferadagi elektr yoyi xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha rus olimlari G.V.Rixman (1711–1753) hamda M.V.Lomonosov (1711–1765) o‘z ilmiy tajribalarini o‘tkazishgan.</p> <p>Ammo dastlabki elektr nazariyasi amerikalik mashhur siyosatchi, dunyo xaritasida AQSh davlati paydo bo‘lishiga o‘z hissasini qo‘shgan davlat arbobi, shu bilan birga, zamonasining taniqli olimi Benjamin Franklin tomonidan yaratildi. Uning risolalarida (“Elektr bilan tajribalar va kuzatishlar” asari, 1747) elektr energiyasi “nomoddiy suyuqlik”, “ko‘rinmas oqim” deya ta'riflangan.</p> | <p>http://uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/656 http://uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/656 https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5536</p> |
| 3. | <p>ELEKTR ENERGIYASI TA'MINOTIDA UZILISHLAR KUZATILMOQDA. YUZAGA KELGAN MUAMMO BARTARAF ETILMOQDA</p> <p>Bugun soat 6:59 da va 10:10 da “Muborak neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi”ga qarashli neft va gaz qazib chiqarish konlarini elektr energiyasi bilan ta'minlab turgan “Neftchi” podstansiyasidan chiquvchi L-Zevarda -1,2 elektr uzatish tarmoqlari rele himoyasidan o‘chgan. Natijada, elektr energiyasini ishlab chiqaruvchi issiqlik elektr stansiyalariga yetkazib berilayotgan tabiiy gaz soatiga 140-175 ming metr kubga qisqargan. Buning natijasida elektr energiyasi ta'minotida respublika hududlari bo‘ylab 600-800 MVtgacha cheklovlar kuzatilmoqda.</p> | <p>http://uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/772 http://uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/772 http://minenergy.uz/uz/news/view/1037 https://kun.uz/06403037 https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5545</p> |

| № | Amalga oshirilgan ishning qisqacha mazmuni | Havolasi |
|----|---|---|
| 4. | <p>“O‘ZBEKISTON MET” AJ AXBOROT XIZMATI: 2020 YIL IV ChORAK HISOBOTI</p> <p>“O‘zbekiston MET” AJ Axborot xizmatining 2020-yil IV chorak media-rejasiga muvofiq amalga oshirilgan ishlar: tahliliy maqolalar, sohaga oid xabarlar, faoliyatning ochiqligi va shaffofligini ta'minlash bo'yicha jamoatchilikka taqdim etilayotgan bayonotlar, bajarilgan ishlar yuzasidan hisobot-ma'lumotnomalar.</p> | <p>http://uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/662 http://uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/662 https://telegra.ph/uzbekistonmet-uz-01-05 https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5548</p> |
| 5. | <p>ELEKTR ENERGIYASI: TARIXI, IBTIDOIY SHAKLI, TARAQQIYOTI, BUGUNI (8-ma'lumot)</p> <p><i>Elektr energiyasini chuqurroq o'rganish 1785-yilda fransuz harbiy muhandisi Sharl de Kulonning (1736–1806) Kulon qonuni kashf etilganidan keyin aniq fanga aylana boshladi.</i></p> <p>Keyinchalik, elektromagnit maydon ta'limotining asoschisi — italiyalik olim Maykl Faradey (1791–1867) tadqiqotlaridan ruhlangan italiyalik shifokor, eksperimental eletrofiziologiyaning asoschisi Luiji Galvani (1737–1798) 1791-yilda hayvonlarning mushaklarida elektr tokining mavjudligini ta'riflovchi “Mushaklarning harakatlanishi paytida elektr ta'siri haqida risola” asarini nashr etdi.</p> | <p>http://uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/657 http://uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/657 https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5538</p> |
| 6. | <p>РУБРИКА «ИТОГИ 2020 ГОДА»: НА САЙТЕ uzbekistonmet.uz И В ТЕЛЕГРАМ-КАНАЛЕ</p> <p>Информационная служба АО «Национальные электрические сети Узбекистана» сообщает, что все филиалы, департаменты, управления, подразделения и службы Акционерного общества начинают публиковать статьи-отчеты для внимания СМИ и общественности под рубрикой «ИТОГИ 2020 ГОДА».</p> <p>Традиционно статьи, опубликованные в этом сводном разделе, предоставляются от имени филиалов, департаментов, управлений, отделов, подразделений и служб или их руководителей в форме отчета, в котором основное внимание уделяется проделанной работе в 2020 году (в цифрах и процентах), достижениях и недостатках, аналитическом заключении-комментариях и предложениях.</p> | <p>http://uzbekistonmet.uz/ru/lists/view/665 https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5557</p> |
| 7. | <p>DAVLAT ORGANLARINING TELEGRAMDAGI RASMIY SAHIFALARINI KUZATIB BORING!</p> <p>O‘zbekistonda rasmiy axborotning birinchi manbasi - axborot xizmatlari hisoblanadi. Hozirgi kunda barcha davlat organlari telegramda o‘z sahifalarini yuritishmoqda.</p> <p>Mazkur telegram kanallarida yangi qonun hujjatlari sharhi, ahamiyatli mavzular yuzasidan ekspertlar fikri, muhokamalarga sabab bo‘layotgan mavzularga oid rasmiy idoralar pozitsiyasidan boxabar bo‘lish imkoniyati mavjud. Davlat organlarining rasmiy kanallari bilan tanishib, a'zo bo‘lishni tavsiya qilamiz.</p> | <p>https://t.me/Rasmiy_xabarlar_Official/12243 http://uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/667 http://uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/667 https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5563</p> |
| 8. | <p>RASMIY BAYONOT / ОФИЦИАЛЬНОЕ ЗАЯВЛЕНИЕ</p> <p>Markaziy Osiyo va Qozog‘istonni bog‘lovchi yagona energetik tizimining elektr uzatish tarmoqlarida rejadani tashqari sodir bo‘lgan uzilishlar sababli avariya qarshi avtomatika ishlagan. Energetik qurilmalarga shikast</p> | <p>https://t.me/minenergy_uz/2634 https://t.me/minenergy_uz/2635</p> |

| № | Amalga oshirilgan ishning qisqacha mazmuni | Havolasi |
|-----|--|---|
| | <p>yetmaslik uchun uskunaning texnologik himoyasi avtomatik ravishda ishlagan va ayrim elektr stansiyalardagi energobloklar o'chirildi. / В связи с произошедшими внеплановыми отключениями на линиях электропередач единой энергосистемы, связывающей Центральную Азию и Казахстан, сработала противоаварийная автоматика. Сработавшая технологическая защита оборудования, во избежание повреждения внутренней части энергоблоков, автоматически отключила ПГУ</p> | <p>http://uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/666 http://uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/666 http://uzbekistonmet.uz/ru/lists/view/666 https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5561 https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5562</p> |
| 9. | <p>2020-YIL SARHISOBI: AXBOROT XIZMATI TOMONIDAN HAYOTIMIZDAGI MUAMMO VA HODISALARGA TEZKOR MUNOSABAT BILDIRILMOQDA (№2)</p> <p>“O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyatining Axborot xizmati (<i>matbuot kotibi</i>) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligining topshiriq va ko‘rsatmalariga binoan 2020-yil davomida OAV hamda keng jamoatchilik e'tiboriga e'lon qilingan elektron axborotlar: iqtisodiy-moliyaviy hisobotlar va boshqa statistik ma'lumotlar, shuningdek modernizatsiya-rekonstruksiya va qurilish-montaj ishlari, investitsion loyihalarni amalga oshirish ko‘rsatkichlari, davlat xaridlari hamda elektr energiyasini yuqori kuchlanishli podstansiya va elektr uzatish tarmoqlari orqali transportirovka qilish hajmi, shu bilan birga, Jamiyatning madaniy, ma'naviy-ma'rifiy hayoti, ishchi-xodimlarga yaratilayotgan sharoitlar, fuqarolar murojaati, adliya xabarlar va huquqiy axborot, bo‘sh ish o‘rinlari, tender va tanlov natijalari hamda boshqa ma'lumotlarni belgilangan tartibda Jamiyatning rasmiy veb-sayti uzbekistonmet.uz va uning ijtimoiy tarmoqdagi sahifalariga (<i>Telegram, Facebook, Twitter, Instagram, UTube</i>) joylashtirib bormoqda.</p> | <p>http://uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/669 http://uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/669 http://uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/668 http://uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/668 https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5582 https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5584</p> |
| 10. | <p>O‘ZBEKISTON ELEKTR ENERGETIKA TARMOG‘INING ISHLASH TARTIBI TO‘LIQ TIKLANDI / РЕЖИМ РАБОТЫ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ УЗБЕКИСТАНА ВОССТАНОВЛЕН</p> <p>Hozirgi vaqtda issiqlik elektr stansiyalarining barqaror ishlash rejimi to‘liq tiklangan. Joriy yilning 5-yanvar kuni Markaziy Osiyo yagona energiya tizimining elektr uzatish tarmoqlaridagi nosozliklarga sabab bo‘lgan elektr energiyasini ishlab chiqarish jarayonini o‘rganish uchun tuzilgan komissiya hodisa sababini aniqladi.</p> <p>В настоящее время полностью восстановлен рабочий режим тепловых электростанций. Созданной комиссией, по изучению аварийной ситуации 5 января на линиях электропередач единой энергосистемы Центральной Азии, была определена причина возникновения произошедшего.</p> | <p>http://uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/674 http://uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/674 http://uzbekistonmet.uz/ru/lists/view/674 https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5585 https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5586</p> |
| 11. | <p>“O‘ZBEKISTON MILLIY ELEKTR TARMOQLARI” AKSIYADORLIK JAMIYATINING 2020-YIL YAKUNLARI NATIJADORLIGI TO‘G‘RISIDA MA'LUMOT</p> <p>I. 2020-yilda qayd etilgan asosiy ko‘rsatkichlar:</p> | <p>http://uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/811 http://uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/811</p> |

| № | Amalga oshirilgan ishning qisqacha mazmuni | Havolasi |
|-----|--|---|
| | <p>1. 2020-yil davomida 53,9 mlrd. kVt•soat elektr energiyasi uzatilib, reja 101,7 % bajarildi (<i>o'sish sur'ati 106,9 %</i>);</p> <p>2. Texnologik sarflar 239,1 mln. kVt•soatga kamaytirishga erishildi (reja 1759,1 mln. kVt•soat, amalda 1 520,0 mln. kVt•soat);</p> <p>3. Investitsiya dasturi doirasida jami 95,213 mln. AQSh dollari hisobida mablag'lar o'zlashtirilib, 4 ta investitsion loyihalar bo'yicha 43,3 mln. doll. iqtisod qilish hisobiga reja 78,5 %ga bajarildi (reja 121,3 mln. doll.);</p> <p>4. 2020-yilda qo'shimcha 1 542 MVA o'tkazuvchanlik quvvati yaratildi.</p> | |
| 12. | <p>2020-YIL SARHISOBI: JAMIYATDA XALQARO SHARTNOMA-KELISHUVLARDAN TASHQARI BARCHA HUJJATLAR DAVLAT TILIDA YURITILISHIGA ERISHILMOQDA (№3)</p> <p>“O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyati boshqaruvi raisining ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchisining 2020-yil davomida amalga oshirgan ishlari yuzasidan hisoboti</p> | <p>http://uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/675</p> <p>http://uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/675</p> <p>https://telegra.ph/uzbekistonmetuz-01-10</p> <p>https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5609</p> |
| 13. | <p>“O‘ZBEKISTON MILLIY ELEKTR TARMOQLARI” AJ TOMONIDAN 2020-YILDA DAVLAT TASHQI QARZI HISOBIGA AMALGA OSHIRILGAN INVESTITSIYA LOYIHALARI DOIRASIDA O‘ZLASHTIRILGAN MABLAG‘LAR TO‘G‘RISIDA MA'LUMOTNOMA / СПРАВКА О СРЕДСТВАХ, ПОЛУЧЕННЫХ АО «НАЦИОНАЛЬНЫЕ ЭЛЕКТРИЧЕСКИЕ СЕТИ УЗБЕКИСТАНА» В РАМКАХ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ, РЕАЛИЗУЕМЫХ ЗА СЧЕТ ГОСУДАРСТВЕННОГО ВНЕШНЕГО ДОЛГА В 2020 ГОДУ</p> <p>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 9-yanvardagi PQ-4563-sonli “O‘zbekiston Respublikasining 2020–2022-yillarga mo‘ljallangan Investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga asosan 2020-yilda “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ tomonidan davlat tashqi qarzi mablag‘lari ishtirokida 5 ta yirik investitsiya loyihalari amalga oshirildi. Ushbu qarorga asosan “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ tomonidan 2020-yilda davlat tashqi qarzi mablag‘lari hisobidan 43,9 mln.doll. mablag‘ o‘zlashtirish belgilangan bo‘lib reja 100,21 foizga bajarildi.</p> | <p>http://uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/716</p> <p>http://uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/716</p> <p>http://uzbekistonmet.uz/ru/lists/view/716</p> |
| 14. | <p>2020-YIL SARHISOBI: MAHALLIY OAV BIZ HAQIMIZDA YOXUD MAMLAKATIMIZDAGI YETAKCHI ELEKTRON NASHRLAR “O‘ZBEKISTON MET” AJ AXBOROT XIZMATI MA'LUMOTLARIGA TAYANIB XABAR BERADI... (№4)</p> <p>Axborot xizmati ma'lumotlariga tayanib https://kun.uz; https://uza.uz; http://darakchi.uz; https://qalampir.uz; https://repost.uz; https://daryo.uz; https://xs.uz; http://jahon.uz; https://teznews.uz; https://yuz.uz veb-saytlarida</p> | <p>https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5610</p> <p>http://uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/676</p> <p>http://uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/676</p> |

| № | Amalga oshirilgan ishning qisqacha mazmuni | Havolasi |
|-----|---|---|
| | nashr etilgan axborotlar to'g'risida ma'lumotnoma-hisobot | |
| 15. | <p>O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAHKAT MIRZIYOYEVNING OLIY MAJLISGA MUHOJATNOMASIDAN</p> <p>Davlat ulushi bo'lgan korxonalar soni, kelgusi ikki yilda kamida 3 barobar qisqartiriladi.</p> <p>2 2021-yilda davlat va xususiy elektr stansiyalari hamda iste'molchilar o'rtasida elektr energiyasi ulgurji bozorini shakllantirish boshlanadi.</p> <p>3 Tabiiy gaz ta'minotida monopoliyani bekor qilinadi. Bunda ishlab chiqaruvchi va importyorlarga birja orqali tabiiy gazni sotish, ulgurji iste'molchilar esa gazni sotib olish huquqiga ega bo'ladi. "O'ztransgaz" kompaniyasi esa faqat gazni transportirovka qiladi.</p> | <p>https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5701</p> <p>https://president.uz/uz/4048</p> <p>https://president.uz/oz/4048</p> <p>https://president.uz/ru/4048</p> <p>http://uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/774</p> <p>http://uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/774</p> |
| 16. | <p>2020-YIL SARHISOBI: "FILIALIMIZ ISHCHI-XODIMLARI "YILNING ENG YAXSHI.." 5 TA NOMINATSIYASI BO'YICHA E'TIROFGA SAZOVOR BO'LISHDI!" (№5)</p> <p>"O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari" aksiyadorlik jamiyati tasarrufidagi "Farg'ona magistral elektr tarmoqlari" filiali tomonidan 2020-yilda amalga oshirilgan ishlar sarhisobi</p> | <p>http://uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/680</p> <p>http://uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/680</p> <p>https://telegra.ph/uzbekistonmetuz-01-12</p> <p>https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5671</p> |
| 17. | <p>VATAN HIMOYACHILARI KUNIDA HAMKASBLARIMIZNING KASBIY MUVAFFAQIYATLARI E'TIROF ETILDI</p> <p>O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi tizimida faoliyat yuritayotgan "O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari" aksiyadorlik jamiyatida qariyb 5 ming nafardan iborat ishchi-xodimlar mehnat qiladilar. Ularning 22,5 % foiz tarkibi xotin-qizlardan iborat bo'lsa, qolgan 77,5 % foizini erkaklar tashkil etadi. Asosan muhandis, texnik va elektr montyorlaridan iborat jamoa tarkibida zaxiradagi zobitlar, harbiy xizmat davrida maxsus tayyorgarlikdan o'tgan mutaxassis kadrlar, baynalminal harbiy harakatlarda ishtirok etgan faxriylar bor. Shuningdek, Jamiyat tarkibida Idoraviy harbiylashtirilgan qo'riqlash xizmati mavjud bo'lib, unda harbiy unvonga ega mutaxassislar ham xizmat qiladi.</p> | <p>http://uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/683</p> <p>http://uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/683</p> <p>https://telegra.ph/uzbekistonmetuz-01-14-2</p> <p>https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5676</p> |
| 18. | <p>O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAHKAT MIRZIYOEVNING OLIY MAJLISGA MUHOJATNOMASI (to'liq matn) / ПОСЛАНИЕ ПРЕЗИДЕНТА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ШАВКАТА МИРЗИЁЕВА ОЛИЙ МАЖЛИСУ (полный текст)</p> <p>Assalomu alaykum, hurmatli deputat va senatorlar! Aziz yurtdoshlar! Muhtaram mehmonlar! Xonimlar va janoblar! / Уважаемые депутаты и сенаторы! Дорогие соотечественники! Уважаемые гости! Дамы и господа!</p> | <p>http://uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/751</p> <p>http://uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/751</p> <p>https://t.me/uzmetaxborotxizmati/1424</p> |

| № | Amalga oshirilgan ishning qisqacha mazmuni | Havolasi |
|-----|--|--|
| 19. | <p>VATAN HIMOYACHILARI KUNI ARAFASIDA ANDIJONLIK ENERGETIKLAR O‘RTASIDA SPORT MUSOBAQASI O‘TKAZILDI</p> <p>2021-yil 13-yanvar kuni “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyati “Andijon magistal elektr tarmoqlari” filiali Yoshlar ittifoqi hamda kasaba uyushmasi boshlang‘ich tashkilotlari boshchiligida O‘zbekiston Respublikasi Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan ishchi-xodimlar o‘rtasida futbol va stol tennis bo‘yicha sport musobaqasi tashkil qilindi. Sport tadbirida asosan ma'muriyat xodimlari, shuningdek xizmat ko‘rsatish jarayonida bo‘lmagan muhandis-texniklar, chilangar va montyorlar, ayniqsa yosh energetiklar faol ishtirok etishdi. Albatta, sport tadbiridan ko‘zlangan maqsad — ishchi-xodimlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzi hamda sportga oshnolikni targ‘ib etishga ma'lum ma'noda erishildi, desak xato bo‘lmaydi.</p> | <p>http://uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/682 http://uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/682 https://telegra.ph/uzbekistonmetuz-01-14 https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5675</p> |
| 20. | <p>2020-YIL SARHISOBI: XORLIY OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI “O‘ZBEKISTON MET” AJ AXBOROT XIZMATI MA'LUMOTLARIGA TAYANIB XABAR BERADI (№6)</p> <p>Axborot xizmati ma'lumotlariga tayanib https://faraj.tj; https://uz.sputniknews.ru; https://rossaprimavera.ru; https://nova24.uz veb-saytida nashr etilgan axborotlar to‘g‘risida ma'lumotnoma-hisobotnoma</p> | <p>http://uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/681 http://uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/681 http://uzbekistonmet.uz/ru/lists/view/681 https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5664</p> |
| 21. | <p>ELEKTR ENERGIYASI: TARIXI, IBTIDOIY SHAKLI, TARAQQIYOTI, BUGUNI (9-ma'lumot)</p> <p>Voltaning ixtirosidan 2 yil o‘tib (1802) rus olimi Vasiliy Petrov (1761–1834) “volta yoyi” — elektr yoyini kashf etdi. Aynan shu ixtiro elektr lampochka tarixini boshlab berdi, desak bo‘ladi. Keyinchalik, rus muhandislari Pavel Yablochkov hamda Aleksandr Lodiginning uzoq tajribalardan so‘ng “Lodigin va jamoaning elektr yoritish sherikligi” tashkilotiga asos solinadi va 1873-yilda “porlovchi lampalar” namoyish etildi.</p> | <p>http://uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/679 http://uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/679 https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5649</p> |
| 22. | <p>2020-YIL SARHISOBI: “ENERGETIKA SOHASIDA ZAMONAVIY SCADA/EMS TIZIMLARINI JORIY ETISH ISHLARI OLIV BORILMOQDA” (№7) / ИТОГИ 2020 ГОДА: «РАБОТЫ ПО ВНЕДРЕНИЮ СОВРЕМЕННЫХ СИСТЕМ SCADA / EMS В ЭНЕРГЕТИКЕ ПРОДОЛЖАЮТСЯ» (№7)</p> <p>“ENERGO-IT” filiali 2020-yil davomida filial zimmasiga yuklatilgan asosiy vazifa — “O‘zbekiston MET” AJ bo‘linmalari, “Energiya” koordinatsion dispetcherlik markazi va Milliy dispetcherlik xizmati uchun ma'muriy, dispetcherlik va texnologik aloqa, shuningdek teleaxborot kanallari uzluksiz ishlashini ta'minladi. / В рамках проекта был завершен конкурс на технико-экономические основы проекта (ТИА) и разработка тендерной документации, а также подписан контракт с консалтинговой компанией «EDF-CIST» (Франция). На первом этапе реализации проекта консультант проводит исследования на подстанциях “Келес”, “Озодлик”</p> | <p>https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5681 http://uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/685 http://uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/685 http://uzbekistonmet.uz/ru/lists/view/685 https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5727</p> |

| № | Amalga oshirilgan ishning qisqacha mazmuni | Havolasi |
|-----|---|---|
| | <p>и “Юксак”, а также на объектах АО «Ташкентская МЭС» с целью изучения и анализа всех устройств, необходимых при осуществлении дистанционного управления в АО «Национальные электрические сети Узбекистана», АО «Тепловые электростанции», АО «Узбекгидроэнерго», расположенных на существующих объектах.</p> | |
| 23. | <p>OVUL OQSOQOLLARINING TALABIGA KO‘RA JO‘QORG‘I KENGES DEPUTATI BILAN MUHOKAMALAR UCHRASHUVI O‘TKAZILDI</p> <p>“O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyati boshqaruvi raisi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi deputati D.A.Isaqulovning Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatiga xizmat safari tafsilotlari</p> | <p>http://uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/693 http://uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/693 https://telegra.ph/uzbekistonmetuz-01-21-2 https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5739</p> |
| 24. | <p>SHAVKAT MIRZIYOEV: JAMIYAT HAYOTINING TANASI IQTISODIYOT BO‘LSA, UNING JONI VA RUHI MA’NAVIYATDIR / ШАВКАТ МИРЗИЁЕВ: ЕСЛИ ЭКОНОМИКА – ОРГАНИЗМ, ОБЕСПЕЧИВАЮЩИЙ ЖИЗНЕДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ОБЩЕСТВА, ТО ДУХОВНОСТЬ – ЕГО СЕРДЦЕ И ДУША</p> <p>O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 19-yanvar kuni ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo‘yicha videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi. / Под председательством Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева 19 января состоялось видеоселекторное совещание по вопросам кардинального совершенствования системы духовно-просветительской работы, усиления взаимодействия государственных и общественных организаций в этом процессе.</p> | <p>http://uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/692 http://uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/692 https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5736 http://uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/754 http://uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/754 http://uzbekistonmet.uz/ru/lists/view/754</p> |
| 25. | <p>RESULTS OF 2020: LOCAL MEDIA OR LEADING ELECTRONIC PUBLICATIONS OF UZBEKISTAN ANNOUNCE ABOUT US REFERRING TO THE INFORMATION OF THE INFORMATION SERVICE OF JSC "NEG OF UZBEKISTAN" ... (NO. 4)</p> <p>Reference-report on the information published on the websites based on the information of the Information Service: https://kun.uz; https://uza.uz; http://darakchi.uz; https://qalampir.uz; https://repost.uz; https://daryo.uz; https://xs.uz; http://jahon.uz; https://teznews.uz; https://yuz.uz</p> | <p>http://uzbekistonmet.uz/en/lists/view/676 https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5610</p> |
| 26 | <p>ELEKTR ENERGIYASI: TARIXI, IBTIDOIY SHAKLI, TARAQQIYOTI, BUGUNI (10-ma'lumot)</p> <p>Uorren De la-Ryuning tajribasini Genrix Gebel (1818–1893) ismli germaniyalik soatsoz usta birmuncha takomillashtirdi. 1878-yilda Lodigin tajribalaridan bexabar ingliz olimi Jozef Svan (1828–1914) shisha kolba shaklidagi birinchi lampochkani yaratdi. Kolba ichida elektr tokiga qarshilik qiluvchi moslama “ko‘mir sim”</p> | <p>http://uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/686 http://uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/686 https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5697</p> |

| № | Amalga oshirilgan ishning qisqacha mazmuni | Havolasi |
|-----|---|--|
| | <p>shaklida bo‘lib, uning yorug‘ligi juda kuchsiz edi.</p> <p>1879-yilda esa ixtirochi Tomas Edison (1847–1931) hozirda biz bilgan xo‘jalik buyumiga yaqinroq bo‘lgan lampochkani ixtiro qildi. Uning ixtirosida Svan tajribalari asos bo‘lgani rost, Tomas uni yanada takomillashtirdi.</p> | |
| 27. | <p>2020-YIL SARHISOBI: “SOG‘LOM TURMUSH TARZI HAMDA O‘Z VAQTIDA DAM OLIH — JAMOADA SOG‘LOM MUHIT VA MEHNAT UNUMDORLIGINING GAROVIDIR” (№ 8)</p> <p>“O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyati tarkibidagi ijtimoiy soha ob’ektlari: “Nurchi” va “Azamat” dam olish maskanlari hamda “Toshkent tibbiy-sanitariya qismi” va “Namangan tibbiy-sanitariya qismi” tibbiyot muassasalari ichida “Nurafshon” sanatoriyasining o‘z o‘rni bor. Sanatoriy yurtimizning eng go‘zal va so‘lim maskanlaridan biri bo‘lgan Farg‘ona vodiysida joylashgan bo‘lib, balneologik kurort maskani hisoblanadi. U Farg‘ona shahridan 32 km masofadagi Qatron tog‘ tizimida, dengiz sathidan 450 metr balandlikda, Oltiariqsoy hududida faoliyat yuritadi.</p> | <p>http://uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/696</p> <p>http://uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/696</p> <p>https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5737</p> <p>https://telegra.ph/uzbekistonmet-uz-01-23</p> |
| 28. | <p>O‘ZBEKISTON–SAUDIYA ARABISTONI: ENERGETIKA SOHASIDAGI HAMKORLIK YANGI BOSQICHGA KO‘TARILMOQDA / МИНИСТЕРСТВО ЭНЕРГЕТИКИ И КОМПАНИЯ ACWA POWER ПРОХОДЯТ ОСНОВНЫЕ ЭТАПЫ НА ПУТИ НАРАЩИВАНИЯ УЗБЕКИСТАНОМ СВОЕГО ПОТЕНЦИАЛА В ОБЛАСТИ ЭКОЛОГИЧЕСКИ ЧИСТОЙ ЭНЕРГИИ</p> <p>Bugun, 2021-yil 24-yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi hamda “ACWA Power” kompaniyasi o‘rtasidagi hamkorlik yuzasidan kelishuv va memorandumlarni imzolash marosimi bo‘lib o‘tdi. Unda “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyati boshqaruvi raisi D.A.Isaqulov ham ishtirok etib, imzolangan investitsiya kelishuvlari bo‘yicha “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyati nomidan ishlab chiqariladigan energoresurslarning yagona xaridor sifatida xalqaro kelishuv hujjatlarini imzoladi.</p> <p>Церемония начала строительства проекта Сырдарьинской ТЭС мощностью 1500 МВт была проведена при участии глав делегаций двух стран, после чего были подписаны два СЗЭ и Инвестиционные соглашения по двум ветроэлектростанциям, расположенным в Бухарской и Навоийской областях. В церемонии также участвовали высокопоставленные должностные лица Министерства энергетики Узбекистана, Министерства инвестиций и внешней торговли и компании ACWA Power.</p> | <p>http://uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/697</p> <p>http://uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/697</p> <p>http://uzbekistonmet.uz/ru/lists/view/697</p> <p>https://telegra.ph/uzbekistonmet-uz-01-24</p> <p>https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5741</p> |
| 29. | <p>2020 YIL SARHISOBI: JAMIYATDA MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLAR SAMARADORLIGI UZBEKISTONMET.UZ SAYTINING VIDEOJAMLANMASIDA (№9)</p> <p>INTERVYU–24 Adiblar xiyoboni — ma'naviyat maskani; DIYOR YANGILIKLARI “Sardoba” suv ombori toshqinidan zarar ko‘rgan aholi vakillari xayriya karvoni yuborgan tashkilotlarga minnatdorlik bildirishdi;</p> | <p>http://uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/701</p> <p>http://uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/701</p> <p>https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5776</p> |

| № | Amalga oshirilgan ishning qisqacha mazmuni | Havolasi |
|-----|--|--|
| | <p>STUDIYA–24 Pandemiya davrida xalqimizning salomatlik deya ataluvchi “xazina”sini turli ofat va balolardan asrash, avvalo, o‘z qo‘limizda. Orif To‘xtash — O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi a'zosi, shoir bilan suhbat; INTERVYU–24 Til — Quyosh, Adabiyot — Nur; INTERVYU–24 Orif To‘xtash — O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi a'zosi, shoir bilan suhbat</p> | |
| 30. | <p>SHAVKAT MIRZIYOYEV: ECONOMY IS ORGANISM ENSURING THE LIFE OF SOCIETY, WHILE ETHICAL ENLIGHTENMENT IS ITS SOUL</p> <p>During Shavkat Mirziyoyev’s recent Address to the Oliy Majlis, at the first Youth Forum of Uzbekistan and the expanded format session of the Security Council, pressing tasks in the field of ethical enlightenment were formulated, since scores of issues await solution in the sphere. Some do not fully understand the essence of the national idea, treat it superficially, mistakenly identifying it with the old ideology. In this regard, the President outlined the pivot of our country’s ideology: “The ideology of the new Uzbekistan we are building will be kindness, compassion, humanism. When we talk about ideology, we mean, first of all, nurturing of reason, fostering of national and universal values. They are built on millennia-old life principles and ideas and values of our people,” the head of state insisted.</p> | <p>https://president.uz/en/lists/view/4089 http://uzbekistonmet.uz/en/lists/view/691 http://uzbekistonmet.uz/ru/lists/view/691 http://uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/691 http://uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/691</p> |
| 31. | <p>YUKSAK VATANPARVARLIK RUHI</p> <p>Ushbu tadbir davomida ham O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni tomonidan ilgari surilgan g‘oyalar, fikr va mulohazalarning mazmun-mohiyati har galgidek yosh avlod ta’lim-tarbiyasiga tutashib ketdi. Zero “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili” avvalida turib qilinayotgan rejalar har birimizning zimmamizga mas’uliyat yuklaydi. Shubha yo‘qki, navqiron yoshlar mana shu Vatan, shu muqaddas tuproqning ertangi Egalari! Demak, ertamiz egalarini o‘z qalbidagi murg‘ak Egalik hissi bilan birgalikda kamol toptirmog‘imiz kerak! Ularga albatta ushbu so‘zlarni uqtiraylik: “Mana shu yurt – seniki! Yangi O‘zbekistonni sen yaratasan!</p> | <p>http://uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/703 http://uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/703 https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5774</p> |
| 32. | <p>ELEKTR ENERGETIKA SOHASIDAGI MAVJUD STANDARTLAR HALQARO STANDARTLAR ASOSIDA BOSQICHMA-BOSQICH QAYTA KO‘RIB CHIQILMOQDA</p> <p>Energetika vazirligi boshchiligida ishlab chiqaruvchilar, ekspluatatsiya qiluvchi korxonalar hamda loyiha institutlarining yetakchi mutahassislarini jalb qilgan holda 4 ta ishchi guruh tashkil etilib, yuqori kuchlanishli elektr uzatish tarmoqlari, podstansiyalar, rele himoyasi va ma’lumotlar almashinuvi hamda elektromagnit moslashuvchanlik yo‘nalishidagi 700 dan ortiq standartlar ko‘rib chiqildi. / Стандарты в области электроэнергетики, действующие в Узбекистане, поэтапно пересматриваются на основе международных стандартов. / In accordance with the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan “Strategy of further development and reform of the electricity sector in the Republic of Uzbekistan” dated March 27, 2019 №-4249,</p> | <p>https://t.me/minenergy_uz/2731 https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5758 http://minenergy.uz/uz/news/view/1075 http://minenergy.uz/ru/news/view/1075 http://minenergy.uz/en/news/view/1075 http://uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/699 http://uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/699</p> |

| № | Amalga oshirilgan ishning qisqacha mazmuni | Havolasi |
|-----|---|--|
| | the French company “Assystem Engineering and Operation Services S.A.S.” and project institute “Uzassystem” were established. | http://uzbekistonmet.uz/ru/lists/view/699 http://uzbekistonmet.uz/en/lists/view/699 |
| 33. | <p>2020-YIL SARHISOBI: “O‘ZBEKISTON MET” AJ FAOLIYATIGA TAALLUQLI MASALALAR RADIO, TELEVIDENIE HAMDA UZBEKISTONMET.UZ VEB-SAYTINING UTUBE.UZ SAHIFALARIDA (№10)</p> <p>uzbekistonmet.uz veb-saytining tube.uz sahifalarida: “O‘ZBEKISTON–24” RADIOKANALIDA; “O‘ZBeKISTON–24” TELEKANALIDA; “O‘ZBEKISTON” TELEKANALIDA; “QARAQALPAG‘ISTAN–MTRK” TELEKANALIDA; “ANDIJON–MTRK” TELEKANALIDA; “SIRDARYO–MTRK” TELEKANALIDA; “BUXORO–MTRK” TELEKANALIDA.</p> | http://uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/702 http://uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/702 http://uzbekistonmet.uz/ru/lists/view/702 https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5770 https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5771 |
| 34. | <p>ELEKTR TA'MINOTIDAGI UZILISHLAR: ODDIY NOSOZLIKDAN OG‘IR OQIBATLI FOJIALARGACHA</p> <p>Jizzaxdagi holat yuridik shaxslar faoliyati va turdosh tashkilotlar mutaxassislarining o‘z ishiga sovuqqonligi oqibatida ro‘y bergan bo‘lsa, Toshkent viloyatidagi holat fuqarolarning e‘tiborsizligi oqibatida sodir bo‘lgan, deyish mumkin. Xullas, 2021-yil 21-yanvar kuni soat 09:37 da Toshkent viloyati, Piskent tumani, Guliston MFYda yashovchi fuqaro N.M.ning noto‘g‘ri va noqonuniy xatti-harakati oqibatida yuqori kuchlanishli elektr tarmog‘ida nosozlik kelib chiqqan... Aniqrog‘i, fuqaro “Toshkent magistral elektr tarmoqlari” filiali balansida bo‘lgan 500 kV kuchlanishli L-502-havo tarmog‘ining 148–149-sonli tayanchlari oralig‘idagi elektr uzatgichning muhofaza hududida jing‘ir daraxtini yoqqani tufayli elektr uzatish havo tarmog‘ida nosozlik ro‘y berib, tarmoq orqali elektr energiyasi bilan ta‘minlanadigan hududda ma‘lum muddat uzilishlar sodir bo‘lgan.</p> | http://uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/698 http://uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/698 https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5757 https://telegra.ph/uzbekistonmet-uz-01-25 https://t.me/uzmetaxborotxizmati/6038 https://t.me/uzmetaxborotxizmati/6125 http://uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/700 http://uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/700 |
| 35. | <p>“ISSIQLIK ELEKTR STANSIYALARI” AJ BOSHQARUVIDA O‘ZGARISH YUZ BERDI / ПРОИЗОШЛА СМЕНА РУКОВОДСТВА АО «ТЕПЛОВЫЕ ЭЛЕКТРИЧЕСКИЕ СТАНЦИИ» / CHANGE OF THE MANAGEMENT OF THE JOINT STOCK COMPANY "THERMAL POWER PLANTS"</p> <p>Farhod Abdurahmonov o‘z faoliyatini 2004-yilda “Farg‘ona issiqlik elektr markazi” aksiyadorlik jamiyatida boshlagan, u ushbu korxonada turli lavozimlarda ishlagan, 2015-yildan buyon aksiyadorlik jamiyatining bosh direktori lavozimida faoliyat yuritib kelayotgan edi. Shuningdek, Abduhamid To‘rabboyevich Jo‘rayev “Issiqlik elektr stansiyalari” AJ boshqaruv raisining Iqtisodiy masalalar bo‘yicha o‘rinbosari etib tayinlandi. / На совещании Абдурахманов Фархад Мамурович назначен председателем Правления АО «Тепловые электрические станции». Фарход Абдурахманов начал свою деятельность в 2004 году в акционерном обществе «Ферганская теплоэлектротростраль», занимал различные должности на этом предприятии, с</p> | https://t.me/minenergy_uz/2747 http://uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/775 http://uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/775 http://uzbekistonmet.uz/ru/lists/view/775 http://uzbekistonmet.uz/en/lists/view/775 https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5779 |

| № | Amalga oshirilgan ishning qisqacha mazmuni | Havolasi |
|-----|--|--|
| | <p>2015 года занимал должность генерального директора акционерного общества. Также заместителем председателя Правления АО «Тепловые электрические станции» по экономическим вопросам назначен Джураев Абдухамид Тураббаевич. / Under the chairmanship of the Minister of Energy of the Republic of Uzbekistan Alisher Sultanov, an extended meeting was held at the Thermal Power Plants JSC. Farkhod Abdurakhmanov began his activity in 2004 in the Fergana Thermal Power Plant Joint-Stock Company, held various positions at this enterprise, and since 2015 served as the General Director of the Joint-Stock Company. Also, Abdukhmid Turabbaevich Juraev was appointed Deputy Chairman of the Management Board of Thermal Power Plants JSC for economic issues.</p> | |
| 36 | <p>OAV: “XALQQA KERAGICHA ENERGIYA BERINGLAR, QARZ DAFTARGA YOZISHAYOTGANI YO‘Q, XALQ PULIGA SOTIB OLYAPTI”</p> <p>Tezkor ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston elektr energiyasidan umumiy qarzdorlik 3,5 trillion so'mni tashkil qilmoqda, undan aholining qarzdorligi esa 2,4 trillion so'mdan ziyodni tashkil etmoqda. “Qashqadaryo elektr tarmoqlari korxonasi” AJning (<i>shartli ravishda Qashqadaryo viloyati iste'molchilarining</i>) 2021-yil 1-yanvar holatiga iste'mol qilingan elektr energiyasidan qarzdorligi 341 milliard 863 million 100 ming so'mni tashkil etmoqda.</p> <p>Ushbu qarzdorlik tarkibida 2020-yil davomida yirik o'sish holati ro'y bergan, ya'ni 2020-yil 1-yanvar holatidagi qarzdorlikka yil davomida yana 187 milliard 952 million so'm qarzdorlik qo'shilgan.</p> | <p>http://uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/722 http://uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/722 http://minenergy.uz/uz/news/view/926 http://minenergy.uz/uz/news/view/913 https://kun.uz/52970312</p> |
| 37. | <p>O‘ZBEKISTON VA AFG‘ONISTON ENERGETIKA SOHASIDAGI HAMKORLIKNI RIVOJLANTIRMOQDA / УЗБЕКИСТАН И АФГАНИСТАН РАЗВИВАЮТ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО</p> <p>2021-yilning 1-fevral kuni O'zbekiston Respublikasi Energetika vaziri Alisher Sultonov Afg'oniston Islom Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari Muhammad Shokir Korgar bilan muzokaralar o'tkazdi. Afg'oniston tomoni o'z hududida 500 kV kuchlanishli Surxon-Puli-Xumri elektr uzatish tarmog'ini qurish loyihasi doirasida ish olib borish uchun barcha zarur choralarni ko'rishini ta'kidladi. Ushbu loyihani amalga oshirish mamlakat rahbariyatining alohida nazoratida ekanligi ta'kidlandi.</p> | <p>https://t.me/minenergy_uz/2774 https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5854 http://uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/711 http://uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/711 http://uzbekistonmet.uz/ru/lists/view/711</p> |
| 38. | <p>MAHALLIY OAV — ELEKTRON NASHRLARIDA E'LON QILINGAN AYRIM XABARLARGA JAVOBAN “O‘ZBEKISTON MET” AJ AXBOROT XIZMATI MILLIY DISPETCHERLIK MARKAZI MA'LUMOTLARIGA TAYANIB XABAR BERADI:</p> <p>Joriy rejimlarda “O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ tomonidan elektr stansiyalari tomonidan yoqilg'i va</p> | <p>https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5785 http://uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/704 http://uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/704 https://t.me/kunuzQashqadaryo/2483</p> |

| № | Amalga oshirilgan ishning qisqacha mazmuni | Havolasi |
|-----|---|---|
| | <p>gidroresurslarning mavjud hajmlaridan kelib chiqib ishlab chiqarilayotgan sutkalik (oʻrtacha) 212,9 mln. kVt•soat elektr energiyasi “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ balansidagi past kuchlanishli tarmoqlargacha (mansublik chegarasigacha), favqulodda vaziyatlardan tashqari holatlarda, uzluksiz yetkazib berilmoqda. Shu jumladan, mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasi yuqori kuchlanishli elektr tarmoqlari va podstansiyalar orqali “Qashqadaryo HETK” AJ ga sutkasiga 18,0 mln. kVt•soat hajmda uzatib berilmoqda.</p> <p>Bundan tashqari, Respublika iste'molchilarini elektr energiyasiga boʻlgan ehtiyojini qoplash maqsadida “Oʻzbekiston MET” AJ tomonidan qoʻshni energetika tizimlaridan sutkasiga 25,4 mln. kVt•soat elektr energiyasi importi amalga oshirilmoqda. Energetika tizimida 21–22-yanvar kunlari kuchli shamol bilan yoqqan qor oqibatida elektr iste'molchilari, shu jumladan Qashqadaryo viloyati iste'molchilari ta'minotida ham uzilishlar sodir boʻldi. Hozirgi kunda favqulodda vaziyat tufayli sodir boʻlgan, “Oʻzbekiston MET” AJga tegishli yuqori kuchlanishli tarmoqlar boʻyicha barcha uzilishlar bartaraf etilgan.</p> | <p>https://daryo.uz/k/2021/01/28/qashqadaryoni-ng-ayrim-hududlaridagi-aholi-18-soatlab-elektr-tokisiz-qolayotgani-malum-qilindi/</p> <p>https://effect.uz/k/2021/01/28/qashqadaryoni-ng-ayrim-hududlarida-18-soatlab-svet-chyapti.html</p> |
| 39. | <p>TOJKISTONDAN ELEKTR ENERGIYASI MAVSUMIY IMPORT AMALIYOTI SHARTNOMADA BELGILANGAN MUDDATLAR ICHIDA TOʻXTATILGAN EDI / СЕЗОННЫЙ ИМПОРТ ЭЛЕКТРОЭНЕРГИИ ИЗ ТАДЖИКИСТАНА БЫЛ ПРИОСТАНОВЛЕН В СРОК, УКАЗАННЫЙ В СОГЛАШЕНИИ</p> <p>Официальное обращение: Согласно договору между АО «НЭС Узбекистана» и компанией «Барки Точик», в соответствии с узбекско-таджикскими межправительственными соглашениями, контракт был подписан на май-сентябрь 2020 года и предназначался только для летнего периода вегетации (орошения).</p> <p>Сообщаем о том, что прошло несколько месяцев с момента приостановки сезонного импорта электроэнергии из Таджикистана в Узбекистан, который был приостановлен в соответствии с условиями соглашения.</p> <p>Rasmiy munosabat: Oʻzbekiston–Tojikiston hukumatlararo kelishuvlarga muvofiq “Oʻzbekiston MET” AJ va “Barki Tochik” kompaniyasi oʻrtasida imzolangan shartnoma 2020-yilning may-sentabr oylari uchun tuzilgan boʻlib, faqat yozgi sugʻorish davri uchun moʻljallangandi. Ayni paytda Tojikistondan Oʻzbekistonga elektr energiyasining mavsumiy import amaliyoti toʻxtatilganiga bir necha oy muddat oʻtdi va mazkur amaliyot shartnomada belgilangan muddatlar ichida toʻxtatilgan edi.</p> | <p>https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5855</p> <p>http://uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/710</p> <p>http://uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/710</p> <p>http://protoday.uz/uz/37360</p> <p>https://t.me/protodayuz/134562</p> |
| 40. | <p>2020-YIL SARHISOBI: “MUNOSIB MEHNAT SHAROITLARINI YARATISH ORQALI BARQAROR RIVOJLANISH SARI” (№11)</p> <p>“Oʻzbekiston milliy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyati Birlashgan kasaba uyushma qoʻmitasi oʻz tasarrufiga 22 ta boshlangʻich kasaba uyushma tashkilotlarini birlashtirgan boʻlib, jami 4687 nafar kasaba uyushma a'zolari, shu jumladan 993 nafar ayollar va 792 nafar yoshlardan iborat jamoaning mehnat, dam olish</p> | <p>https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5857</p> <p>https://telegra.ph/uzbekistonmet-uz-02-02</p> <p>http://uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/712</p> <p>http://uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/712</p> |

| № | Amalga oshirilgan ishning qisqacha mazmuni | Havolasi |
|-----|---|--|
| | <p>va boshqa huquqlarini himoya qilishga bel bogʻlagan.</p> <p>Jamiyatning uzbekistonmet.uz veb-saytida “Kasaba uyushmasi” nomli nimrukn tashkil etilgan boʻlib, unda Axborot xizmati tomonidan jamoat tashkilotining faoliyatiga doir xabar va yangiliklar keng jamoatchilik e'tiboriga taqdim etib boriladi.</p> | |
| 41. | <p>“O‘ZBEKISTON MILLIY ELEKTR TARMOQLARI” AKSIYADORLIK JAMIYATI ASOSAN ISHLAB CHIQRILGAN ELEKTR ENERGIYASINI YUQORI KUCHLANISHLI ELEKTR TARMOQLARI ORQALI UZATISH (TRANSPORTIROVKA) BILAN SHUG‘ULLANADI</p> <p>O‘zbekiston elektr energetika tarmog‘iga asosan 4 ta tashkilot mas’ul bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi Prezident qarorlari hamda Hukumat topshiriqlari ijrosi nazorat qiluvchi va tarmoqda istiqboldagi rejalar strategiyasini belgilovchi — muvofiqlashtiruvchi organ hisoblanadi.</p> <p>“O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ o‘z faoliyat majburiyatlariga ko‘ra iste’molchilar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar imzolamagani, ya’ni jismoniy hamda iste’molchi yuridik shaxslar bilan hisobdorlik yuritmagani bois Axborot xizmatining filial bo‘limlarini ochish, mutaxassislarni jalb etish, ularning o‘z veb-sayti va ijtimoiy tarmoqdagi sahifalarini yuritish kabi amaliyotlar, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi — Jamiyat Yagona aksiyadorning ko‘rsatmalariga binoan iqtisodiy-tashkiliy tarkibga ko‘ra (http://uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/78) nazarda tutilmagani bois, ayni paytda filiallar huzurida Axborot xizmatlari tashkil etilmagan.</p> | <p>https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5802</p> <p>http://uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/705</p> <p>http://uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/705</p> <p>https://t.me/kunuzQashqadaryo/2492</p> <p>http://uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/597</p> |
| 42. | <p>29-YANVAR KUNI “ENERGO-IT” FILIALI XODIMLARI ISHTIROKIDA “DAVLAT TILIDA ISH YURITISH ASOSLARI” FANI BO‘YICHA MAHORAT DARSİ MASHG‘ULOTLARI O‘TKAZILDI</p> <p><i>“O‘zbekiston MET” AJ ma'muriyatining ko‘rsatmalariga binoan ishchi-xodimlar davlat tilida ish yuritish amaliyotining nazariy va amaliy bilim-ko‘nikma hamda mahoratini oshirish borishi, bu borada turli seminar va malaka oshirish kurslari tashkil etish belgilangan.</i> Shu maqsadda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi “Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi” bitiruvchisi, IChTB bo‘limi xodimi Gulxumor Qo‘chqorova o‘quv kursida o‘zlashtirgan bilim-tajribalarini hamkasblari bilan o‘rtoqlashdi.</p> | <p>https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5813</p> <p>http://uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/708</p> <p>http://uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/708</p> |
| 43. | <p>ELEKTR ENERGIYASI: TARIXI, TARAQQIYOTI, BUGUNI (11-ma'lumot)</p> <p>1820-yilda daniyalik fizik Ersted elektr zanjirini qo‘shish va ajratish paytida kompas ko‘rsatkichi tebranishini aniqlaydi. 1821-yilda fransuz fizigi Amper elektr va magnetizm o‘rtasidagi bog‘liqlik faqat elektr tokida kuzatilib, statik elektr holatida yo‘qligini o‘rganadi.</p> <p>So‘ngra bu ixtirolar Joul, Lens va Om asarlarida aks etadi. 1830-yilda esa Gauss elektrostatik maydon</p> | <p>https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5841</p> <p>http://uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/707</p> <p>http://uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/707</p> |

| № | Amalga oshirilgan ishning qisqacha mazmuni | Havolasi |
|-----|--|---|
| | nazariyasining asosiy teoremasini e'lon qiladi. | |
| 44. | <p>O‘ZBEKISTONNING KELAJAGI YOSH MUHANDIS NIGOHIDA</p> <p>Yodingizda bo‘lsa, 2020-yilning 25-dekabr kuni Toshkent shahrida O‘zbekiston yoshlari forumi o‘tkazilgan bo‘lib, unda Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ham ishtirok etgan edi. Forumda kelajak egalari — yoshlar bilan ochiq muloqot o‘tkazilib, davlat rahbari tomonidan ularning o‘y-fikrlari, orzu-istaklari tinglangan edi. Eng asosiysi, yosh avlod bilan bunday uchrashuvlar Prezident uchun g‘ayrat-shijoat bag‘ishlashi, yoshlar mamlakatning eng katta boyligi, bebaho xazinasi ekani ta'kidlangandi.</p> <p>Jamiyat uzbekistonmet.uz veb-sayti “Yoshlar siyosati” ruknining bugungi mehmoni Yoshlar Ittifoqi boshlang‘ich tashkiloti a'zosi — xorijda o‘qib kelib, o‘zining nazariy bilimlarini amaliyotga tatbiq etish orqali O‘zbekiston taraqqiyotiga kichik bo‘lsa-da o‘z hissasini qo‘shishga bel bog‘lagan yosh kadr, ayni paytda “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyatida mehnat faoliyati boshlagan muhandis Izzatjon Asadov Qobul o‘g‘li...</p> | <p>https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5867</p> <p>https://telegra.ph/uzbekistonmet-uz-02-04</p> <p>http://uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/719</p> <p>http://uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/719</p> |
| 45. | <p>MUNOSIB EHTIROM — Hazrat Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligi oldidan</p> <p>Yodingizda bo‘lsa, davlatimiz rahbarining 2020-yil 19-oktabrda “Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarori qabul qilingan edi. Ona diyorimizning o‘tmishda ham, bugungi kunda ham chin ma'noda faxriga aylangan buyuk siymo Amir Nizomiddin Alisherbek Navoiy hazratlari haqida so‘z yuritganda, o‘zlarining ta'biri bilan aytganda, odamlarning naqshidir deb ta'riflasak, ayni haqiqat. Millatimiz tarixida, Zahiriddin Muhammad Bobur ta'biri bilan aytganda, Navoiydek benazir shaxsni topish mushkul.</p> | <p>https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5871</p> <p>http://uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/721</p> <p>http://uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/721</p> |
| 46 | <p>2020-YIL SARHISOBI: “SANOAT KORXONALARI JADAL RIVOJLANAYOTGAN QASHQADARYO VILOYATIDA ELEKTR TA'MINOTI BARQARORLIGINI TA'MINLASH HARAKATIDAMIZ” (№12)</p> <p>Filialda o‘tgan 2020-yil davomida elektrtarmoq xo‘jaligi ob'ektlari, ya'ni 500 kV li “G‘uzor”, 220 kVli “Qarshi”, “Pachkamar”, “ShGXX”, “Muborak”, “Muborak-2”, “Koson”, “Ko‘kdumaloq”, “Talimarjon NS-7” va Turkmaniston Respublikasi hududida joylashgan NS-1, NS-2, NS-3, NS-4, NS-5, NS-6 podstansiyalari umumiy uzunligi 1698,524 kilometrni tashkil etgan 110–500 kVli elektr uzatish liniyalariga texnik xizmat ko‘rsatilgan holda keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi.</p> <p>Jumladan: 2020-yil mobaynida filial tarmoqlari orqali 5546618,219 ming kVt•soat elektr energiyasi “Qashqadaryo hududiy elektr tarmoqlari korxonasi”AJga yetkazib berildi. Elektr energiyasini uzatish jarayonidagi texnologik sarf 173407,433 ming kVt•soatni yoki 1.49 % tashkil qildi.</p> | <p>https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5874</p> <p>https://telegra.ph/uzbekistonmet-uz-02-05</p> <p>http://uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/723</p> <p>http://uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/723</p> |

| № | Amalga oshirilgan ishning qisqacha mazmuni | Havolasi |
|-----|--|---|
| 47. | <p>MILLIY DISPETCHERLIK MARKAZIDA NAVBATDAGI OYLIK TEXNIK-O'QUV MASHG'ULOTLARI O'TKAZILDI</p> <p>Milliy dispetcherlik markazida o'tkazilgan navbatdagi mashg'ulot quyidagi mavzularga bag'ishlandi: 1. Energetika tizimining o'tgan yil yakunlari; 2. Joriy yil yanvar oyida yuz bergan favqulodda holatlar tahlili; 3. Elektr energiyasi iste'moli ortishi tufayli energetika tizimida hosil bo'layotgan muammoli nuqtalar sharhi; 4. NKMKning ayrim podstansiyalari va tarmoqlarini "O'zbekiston MET" balansiga o'tishi bilan bog'liq operativ bo'ysinuv va NKMK operativ xodimlari bilan o'zaro munosabatlarni belgilovchi me'yoriy hujjatlardagi o'zgarishlar; 5. Ichki tartib-intizom va o'zbek tilida ish yuritishga doir masalalar. Kun tartibining birinchi va ikkinchi masalalari yuzasidan Milliy dispetcherlik markazi boshlig'i M. Boboev, uchinchi masala bo'yicha MDM yetakchi muhandisi I. Muhamadalievlar ma'ruza qilishdi va dispetcherlik hamda rejim guruhi xodimlarining savollariga javob berishdi. Yig'ilish ishtirokchilari ko'rib chiqilgan favqulodda vaziyatlarni oldini olish yuzasidan o'z takliflarini bildirishdi</p> | <p>https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5886 https://telegra.ph/uzbekistonmet-uz-02-08 http://uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/725 http://uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/725</p> |
| 48. | <p>O'ZBEKISTON RESUBLIKASI JISMONIY TARBIYA VA SPORT VAZIRLIGI TASHABBUSI BILAN 2021-YIL 12-14-FEVRAL KUNLARI TOSHKENT VILOYATI CHIMYON QISHLOG'IDA "CHIMYON-EXO-2021" HAMDA "CHIMGAN EKSTRIM-2021" QISHKI EKSTREMAL SPORT TURLARI FESTIVALI BO'LIB O'TDI</p> <p>Sport tadbirida mamlakatimizdagi vazirliklar, davlat idora va tashkilotlarining 150 nafardan ziyod "sport targ'ibotchi"lari, shuningdek 20 nafardan ortiq ommaviy axborot vositalari xodimlari ishtirok etishdi. Festival doirasida sport musobaqalari hamda o'quv seminarlar tashkil etildi. Ushbu sport tadbirida "O'zbekiston MET" AJ sport targ'ibotchisi Odiljon Vohidov ham ishtirok etib, Energetika, Investitsiyalar va tashqi savdo hamda Qurilish vazirliklari, ATB "Ipoteka bank", "Sport" telekanali targ'ibotchilaridan iborat jamoa bilan basketbol musobaqalarida faxrli 2-o'rinni egalladi.</p> | <p>https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5934 http://uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/735 http://uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/735</p> |
| 49. | <p>SIRDARYOLIK YOSH MUHANDISLAR VILOYAT MA'MURIY MARKAZIDAGI TADBIRLARDA FAOL ISHTIROK ETISHDI</p> <p>Tadbir qatnashchilari Alisher Navoiy qalamiga mansub she'rlar, g'azallar, baytlaridan namunalar o'qidilar. Madaniy-ma'rifiy tadbirning badiiy qismi viloyat musiqali drama teatrida davom ettirildi. Unda Olim Xo'jayev nomidagi viloyat drama teatri aktyorlari ijrosida sahnalashtirilgan teatr tomoshalari qo'yildi.</p> <p>Bunday tadbirlar viloyatning chekka-chekka nuqtalarida ham, maktabgacha tarbiya muassasalarida, umumta'lim maktablarida, tashkilot va korxonalarida, shu jumladan "Sirdaryo magistral elektr tarmoqlari" filialida ham davom etmoqda.</p> | <p>https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5895 https://telegra.ph/uzbekistonmet-uz-02-09 http://uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/727 http://uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/727</p> |

| № | Amalga oshirilgan ishning qisqacha mazmuni | Havolasi |
|-----|--|---|
